

James Preller



YO'QOLGAN TANGA SARGUZASHTLARI

JAMES PRELLER

**YO'QOLGAN TANGA
SARGUZASHTLARI**



Toshkent
«EXTREMUM PRESS»
2010

Ushbu tarjima asar Namangan Davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи
yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va nashr etish uchun tavsiya etilgan. Bayonnomma № 5.
“31” may 2010.

Ingliz tilidan **GULNOZA XOLDOROVA** tarjimasi

Mas’ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M. Sulaymonov

Taqrizchi: filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Z. Sodiqov

Aziz kitobxon! Jahan xalqlari adabiyoti g‘aroyib asarlarga boy. Ingliz tilidan
Gulnoza Xoldorova o‘zbekchalishtirgan bolalarbop bu asar Sizlarga manzur bo‘ladi
deb o‘ylaymiz.

ISBN 978-9943-369-63-4

© «EXTREMUM PRESS», 2010-y.
G. Xoldorova.



1- QISM

YO'QOLGAN TANGA

Men qishki idoramda, yerto‘laning burchagidaman. Asli rasmiy idoram uyimizning orqa qismida, daraxtzorlar orasida joylashgan. Ammo bu joy qish faslida yopiladi, chunki qish u yerda juda qorli va muzli bo‘ladi. Baxtimga ota-onam qishda shu yerda ishlashimga ruxsat berishgan. Bu yer jannat emas, ammo hammasiga chidasa bo‘ladi deb umid qilaman. Idoramda mening shaxsiy ish stolim bor. Uning orqasidagi devorga “JIGSO JONS – IZQUVAR” deb yozilgan. Bu yozuvni o‘zim tayyorlaganman.

Stolim ustidagi uzum sharbatidan ikkinchi stakanni ham si pqardim va sabr bilan kutishda davom etdim.

Hozir aynan 15:52.

Bizni kelganingiz haqida ogohlantirish uchun sizga qo‘ng‘iroq kerak bo‘lmaydi. Chunki Reks ismli itimiz birov eshikka yaqinlashganini darrov sezadi. U vovullasa men Lusi Hiller kelganini bilaman.

Ana, Reks xabar berdi.

— Menimcha, u sening mehmoning, Jigso, — dedi oyim.

Eshik ochilgandan so‘ng, “ Rahmat, Jons xonim”, — dedi muloyim ovoz. Men zinalardan tushayotgan qizil krasofkani ko‘rdim. Krasofkalar Lusi Hillerga tegishli edi.

Lusi mening qarshimdagi stolga o‘tirdi. Uning sochlari qora va jingalak, ko‘zлari yumaloq va qorachiqlari jigarrang edi.

— Uzum musallas! — taklif qildim men.

Lusi muloyim bosh irg‘adi: — Yo‘q, rahmat!

Menga uning oq, tekis tishlari ko‘rindi. Keyin yuzidagi bilinar-bilinmas tabassum umuman yo‘qoldi. — Menga sizni ikkinchi sinfdagi eng yaxshi detektiv (izquvar) deb tavsiya qilishdi.

Men hech nima demadim.



Jigso Jons -
Izquier

\$1.00
in
Advance

Lusi lablarini tishladi. – Bir muammo chiqib qoldi.

– Men muammodan xalos qila olaman, – dedim. – Ammo bu ish pullik. Har kuni bir dollar olaman.

Lusi qanchadir pulni stolga qo‘ydi. Men gapirishdan to‘xtadim. Pulda Abram Linkolnning rasmi bor edi.

– Bu besh dollar-ku!

– Agar meni tashvishdan xalos qila olsangiz buning ahamiyati yo‘q, – dedi Lusi.

Men detektiv jurnalimning toza sahifasini ochdim. Hamkasbim Milani esladim. Ammo u hozir musiqa darsida. Men usiz boshlashga majburman.

Lusi tez gapirardi: – O‘tgan juma men dadamning kolleksiyasidagi bir tangani olgan edim. Bu tangaga uch oyoqli ho‘kiz tasviri tushirilgan bo‘lib, judayam qimmat tanga edi. Men uni mакtabga olib borib hammaga ko‘rsatishni xohlagan edim.

Taxmin qildim va Lusining fikrini bo‘ldim.

– Demak, u yo‘qolgan.

Lusi o‘ta xomush qiyofada bosh chayqadi. Men bunday vaziyatda nima qilishni juda yaxshi bilaman. Unga ro‘molcha

uzatdim. Ammo Lusi yig‘laydiganlar xilidan emas ekan, uning ko‘zлari tiniq edi.

— Tangani tanaffusda Big Meloniga ko‘rsatdim, — davom etdi u. — U katta basketbol maydonida qorbobo yasayotgan edi. Bigga tanga judayam yoqdi. U tangani eng yaqin narsasidek qabul qildi. Shuning uchun men unga kunning qolgan qismida senda turishi mumkin, deb ruxsat berdim.

Lusi biroz to‘xtadi: — Hozir Big uni topolmayapman deyapti, — deb qo‘sib qo‘ydi.

Men gangib qoldim: — Nima uchun odamlarning hammasi shunday? Siz tangani nega Big Maloniga berdingiz?


Lusining yonoqlari chaqnadi: — Bilmayman, — dedi u yerga qarab.

Bir daqiqa o‘ylanib qoldim. Miyamga savollar urilardi. Oxiri so‘radim: — Siz Big haqiqatni aytyapti deb o‘ylaysizmi?

Lusi boshini ko‘tardi va menga qaradi. Hozir uning ko‘zлari shishgan va biroz nam edi. Chindan ham endi ro‘molcha kerak bo‘ldi.

U ketgandan so‘ng men qalamlarimni oldim. Detektiv jurnalimga SHUBHA deb yozib qo‘ydim. Uning tagiga pushti ‘rangda chizdim. Keyin ism yozdim: BIG MELONI.

Bu belgi shubhali shaxs ma’nosini bildirardi.






2- QISM

MILAGA SMS

Men Milaga xabar yozdim. Bu maxsus koddan iborat edi. Reks mening ishlayotganimni kuzatardi. Men xavotirlanmadim, chunki Reks o'qishni bilmaydi. Reks asli yejish, uqlash, vovullashdan tashqari ko'p narsa qilolmaydi. U ko'p vaqt so'lagini oqizib yotadi. Dadamning fikricha, Reks hammayoqni ivirsitadi. Ammo bu menga xalaqit bermaydi, biz baribir uni yaxshi ko'ramiz.

Siz detektiv bo'lsangiz, demak, sizda qandaydir maxfiy kod bo'lishi zarur. Bu kasbingizning bir qismi hisoblanadi. Menda detektiv fokuslar haqidagi kitob bor. Mila va men bir-birimizga yozgan xatlarimizni oynak orqaligina o'qiy olamiz.



Birinchi, men qog'ozning ikki varag'ini oldim. Unga xabarim matnini yozdim. Hozir fokusli qism keladi. Qog'ozni yuqorisiga buklab boshqa qismiga o'shani ko'chirib yozdim. Keyin birinchi varaqni yirtdim va mening oynakli xabarim qoldi.

Buni faqatgina oynada o'qing, mana mening xabarim:

MILA KATTA MAMMO AUTOBUSDA
KO, RISHAMIZ. XABARNI YO, QOT
JIGSO

- Tushlik deyarli tayyor, — dedi onam.
- Hozir, — javob berdim men.

Mila mening eng yaxshi do'stim. U men bilan hamma

katta muammolarni ham hal qiladi. Men unga kuniga besh sent to‘layman.

Milaning uyiga borish uchun kiyinib olish kerak. Bu qishdagi yana bir katta muammo. Siz kunning yarmini etik, sharf, qo‘lqoplariningizni kiyishga va yana ko‘p qismini ularni yechishga sarflaysiz.

Oilamda besh kishi bor. To‘rt o‘g‘il va bir qiz. Keyin bu yerda mening oyim, otam va buvim. Buvim ko‘p yillardan beri biznikida yashaydi.

Men, odatda, tushlikdan keyin dars qilaman. Mening o‘qituvchim, Glison xonimning aytishicha, bu ridomaniyaning (o‘qishga mubtalolik)ning boshlanishi ekan. Agar siz kuniga 15 minut o‘qisangiz, siz bir nakleyka olasiz. Agar u yuztaga yetsa, o‘qituvchimiz muzqaymoq bilan mehmon qiladi. Men allaqachon 53 ta nakleyka yig‘dim va ustozimga shokoladli muzqaymoqni yoqtirishimni ham aytib qo‘ydim.

Vazifalarimni bajargandan so‘ng men ba’zida televizor ko‘raman. Yoki Jigso jumboqlarini bajaraman, akalarimga josuslik haqda gapirib beraman. Ammo bu kecha nima qilishim tayin : muammo haqida o‘ylashim kerak.



3- QISM

YANGI YIL QORBOBOSI

Ertasi kuni men Milani bekatda uchratdim. U xursand edi.

Mila doim tashqariga chiqqanda Qor odam haqidagi qo'shiqni kuylardi. U yaxshi kuylaydi, ammo so'zlarini aniq talaffuz qilmaydi. U Qor odamni kuylashni yoqtiradi. O'qituvchimiz Glison xonim o'tgan hafta unga kuylashni o'rgatgan edi. Mila kuyladi:

Men yasadim dunyodagi eng katta qorboboni,
Qoplari sovg'alarga to'la zo'r boyboboni.
Oppoq qordan yasaganman do'stlarim bilan uni,
Sen ham bir ko'r, sovg'alarga ko'mib tashlaydi seni.

Biz avtobusning orqa o‘rindig‘iga birga o‘tirdik. Mila barmoqlarini burni ustiga qo‘ydi. Bu bizning maxfiy ishoramiz. Bu bilan u xabarni o‘qiganligini bildirdi.



— Bu shunchalik katta muammomi? — so‘radi u.

Men unga Lusining tashrifi, uch oyoqli ho‘roz tasvirli tanga, Big Meloni haqida ham gapirib berdim. — Kel, Big bilan gaplashib ko‘ramiz.

Biror nima demadim, ammo bilardimki, Mila to‘g‘ri gapiryapti. Biz Big bilan gaplashishimiz kerak edi. Boshqa yo‘l ko‘rinmasdi. Miyamda faqatgina shu o‘y arava g‘ildiragidek aylanardi.

Men Big bilan uchrashganimda oxirgi marta u meni qor bilan urgan edi.

Bigga tashvish xuddi soya kabi ergashib yuradi. O'tgan hafta Bigning hamyonи xona ichida yo'qolib qoldi. Glison xonimga bu tasodif ekanligini aytdi. Ammo, menimcha, bu oldindan o'yangan reja edi. Halloven bayrami nishonlanayotgan edi. U ustiga ketchup to'kib yuborib polga yotib oldi va hammaga uni qon deb aytdi. Bu Bigning navbatdagi hazili edi.

Avtobus bekatga kelganda Mila maktab hovlisini ko'rsatib, "Ana birinchi raqamli shubha", dedi. Big yolg'iz



qorbobo yasayotgan edi. Mila va men qorda zo‘rg‘a qadam tashlar edik.

Big Meloni sinfdagi eng novcha, eng semiz bola edi. Uning haqiqiy ismi Charli, ammo hamma uni Big (Katta) deb chaqirardi. Chindan ham juda katta. U yangidek ko‘ringan qishki kurtkasini kir qilib ulgurgandi.

— Sen detektivsan, agar sening qo‘lingga ajoyib detektiv tushib qolsa, Jigso Jons, — dedi Big, — uni qanday tashlab keta olasan? — U qo‘li bilan qorboboga qor tiqardi.
— Yoki o‘sha kungi voqeani biror kishiga aytdingmi? — Uning yuzi xavotir bilan qoplandi.

— Men chaqimchi emasman, — dedim men.
— Bu tasodif bo‘lgan.
— Balki tasodifdir.
— Qara, Jigso , — dedi u. — Qachon qor yog‘ishni boshlasa, men qorto‘p yasashni xohlayman. Qorto‘p yasasam uni otishim kerak. Sen eng yaxshi nishon bo‘lgan bo‘lsang, bu mening aybim emas.

Mila qorboboni ko‘rsatdi. — Qanday qilib bunday katta o‘lchamda yasadningiz?

Big qattiq kului. U mag‘rurona kulardi. – Sen umringda shunaqa katta qorboboni ko‘rganmisan?

– U hammasidan katta, – dedi Mila.

Bigning yuzi judayam yorishib ketdi. – Sen hali hech narsani ko‘rganining yo‘q. Men bu qorboboni uch kundan beri yasayman. U mening eng sevimli qorboboyim bo‘ladi.

– Eshit, Big, – dedi Mila. – Biz senga besh savol bergani kelganmiz.

– Ha, nima haqida?

– Lusi Hiller va uning yo‘qolgan uch oyoqli ho‘kiz



tasviri tushirilgan tangasi haqida.

Big pastga qaradi. U qorto‘pni oyoqlari bilan ezg‘iladi.

— Men uni yo‘qotdim, bu tasodifan bo‘ldi, — dedi.

— Tasodif, — dedim men. — Men uni oldin eshitdim.

Big tumshaydi. U zarb bilan qo‘lini mening yelkamga qo‘ydi. Qo‘llari ayiqning changaliga o‘xshardi. — Bu gaping bilan nima demoqchi bo‘lyapsan? Seningcha, men yolg‘onchimanmi?

Men Bigning yelkasidan kelar edim. Undan ancha kichkina edim, ammo chekinmadim.

— Menga qara, Big, men hech narsani o‘ylamayapman.

Men detektivman, xolos. Savol beryapman.

Jirinngg!!!

— Qo‘ng‘iroq chalindi, — dedi Mila. — Ichkariga kirganimiz yaxshiroq.



4- QISM

ZIYOFAT REJASI

201-xona asalari inidek band edi. Hamma sinfning juma kungi bazmi haqida gapirmoqda. Biz o'zimiz yasagan sumkamiz bilan boramiz va qobiliyatlarimizni namoyish qilamiz. Bolalarning ko'pchiligi yasagan sumkalarini sovg'a qutilar bilan to'ldirishgan. Glisonning aytishicha, bu sovg'alar biz xohlagan kitoblar bo'lishi mumkin. Menga ham bu juda ajoyib ko'rinoqda. Men kitoblarni judayam yaxshi ko'raman. Ularning ko'pchiligi, qanday bo'lsa ham, menga yoqadi.

Glison xonim novcha va kalta sochli edi. Ba'zi bolalar aytishadiki, u oq-sariq sochli ayol. Menimcha, uning sochlari oktabrdagi zarang yaproqlarning rangiga o'xshaydi. Nima bo'sayam, u maktabdagi eng ajoyib

o'qituvchi edi. Shuning uchun u ko'zimga judayam chiroyli ko'rinati.

Sinf ziyofati uchun hammaning maxsus kasbi bor. Men salfetka olib kelishga majbur edim. Onamdan o'rgimchak odam yoki Urushlar yulduzi salfetkasini olib kelib berishlarini so'radim. Glisonning aytishicha, u butun sinfga pitsa buyurgan Ralfi Jordandan tashqari hamma xursand edi. Bu bechora yigitning pitsaga allergiyasi bor.

Biz ko'p ishlarni bajarganimizdan xursand edik. Glison bizga qo'shimcha tanaffus berdi. O'yin maydonchasida hamma o'zining qobiliyati haqida gapira boshladi. Mila qo'shiq kuylashini, Jo Pignatto taykvando harakatlaridan ko'rsatishini aytdi. Danika Starling va Kim Levis qo'g'irchoq o'yinini ko'rsatadi. Hattoki Big Meloni ham ajoyib surpriz rejalashtirgan.

Men ko'p gapirmadim. Bu yerda mendan boshqa hammaning o'z rejalashtirgan namoyishi bor edi. Men hech narsa deyolmasdim ham.



Tushlikda biz bayram xabarini Glison xonimga beramiz. U, har kuni to'rttadan bola o'zining namoyishi haqidagi xabarini beradi, dedi.

U: – O'quvchilar, men axborotingizdan judayam xursand bo'laman, – deb aytgan. – Men hamma nishonlaydigan bayramlarimizni o'rganib chiqishingizni kutolmayman. Shuning uchun oilamiz faqat qish fasli davomida nishonlaydigan ba'zi bayramlarni yig'ishga topshiriq oldik. Bugun ikki bola Kristmas kuni va bolakay Jesus haqida gapirdilar. Keyin Gita Neyrning navbatি keldi. Uning ota-onasi hindistonlik. Qish boshlanishida Gitaning ota-onasi Divalini nishonlashar ekan. Ular bu bayramni Shamlar festivali deb ham atashar ekan. Bu yaxshi bayram edi, undan keyingi tozalashni nazarda tutmasak.

Gita "di pasham" deb ataladigan gil shamni sotib oladi. Men tezda jurnalimga uning rasmini chizdim. Deyarli shunga o'xhash.

Keyin Milaning gali. Men unga alohida e'tibor qaratdim. "O'tgan yili biz oilamizda yangi an'analarni

boshladik, — dedi Mila. — Biz magazindan yangi o‘yinchoq sotib oldik, ammo uni ochmadik. Keyin biz



ularni boshqa o‘yinchoqlar bilan qutiga joyladik. Bolalarga o‘yinchoqlar judayam kerak”.

Mila Glison xonimga qaradi. — Bu haqda nima deysiz? — dedi u.

— Rahmat, Mila, — dedi Glison xonim. — Bu juda yaxshi!

U hammaga to‘plagan ma’lumotlari uchun tashakkur bildirdi. Boshqalarga yaxshi tinglovchi bo‘lganliklari uchun

rahmat aytди.

Keyin biz matematika daftaramizni ochib mashqlar bajardik. Menga matematika darsi judayam yoqadi, chunki unda sirlilik bor. Biz mashq kitobimizni Jenitor (bino nazoratchisi) Matematikasi deb ataymiz. Bu mashqda shunday deyilgan: Janob mashq bajaruvchi! Maktab jenitori katta ishni rejalashtirgan. U sinfxonalar eshiklaridagi nomerlarni bo'yaydi. Uning sevimli raqamlari 1,2 va 3. U shu sonlar o'rnini almashtriib 6 ta xona raqamini tayyorladi. U tayyorlagan xona raqamlarini yozing.

Bu qismi oson. Men javobimni tezda yozib bo'ldim. Mana mening yozganlarim:

123 231 312

213 321 23

123 132

Bu yerda ikkita xato bor. Keyin yana bir savolga javob berasiz. Ularning ichidagi eng sevimli raqam qaysi? Bu yerda ikkita kalit ham bor. Bu jumboqning yechimiga ham o'xshab ketadi.

1-kalit: O'nlik o'rinda eng katta raqam joylashgan.

2-kalit: Yuzlik o'rinda eng kichik raqam joylashgan.

Men javobimni yozdim: 132.

Matematikaga qiziqarli fan sifatida qarayman. U menga detektivga o'xshab yoqadi, ya'ni menda detektivga o'xshagan hisni hosil qiladi. Ikkinci tarafdan men o'zimizning maktab jenitori janob Kopabiankoni eslayman. Men uni judayam yoqtiraman, chunki uning munosabati juda samimiy va do'stona. Ajoyib qariya Kopabianko bizning samimiy munosabatimizni qadrlaydi. Biz uni hammamiz yaxshi



ko'ramiz.

Men shuni sezyapmanki, Mila ko'p vaqtini Lusi Hiller bilan o'tkazyapti. Lusi haliyam yo'qolgan tangasi haqida qayg'urmoqda ekan. Keyin miyamga to'satdan bir fikr keldi. Bu judayam oson. Bu yerda, uyimizning yaqinida shaharchaning tanga magazini bor. Men Lusiga yangisini olib berishim ham mumkin-ku! Hammadan oldin tangani qanchaga sotib olishim mumkinligi haqida o'yladim.



5- QISM

SEM AMAKINING TANGA DO'KONI

Men akam Billu bilan Sem amakining do'koniga bordim. U har doim men bilan birga yuradi. Chunki u onamning mashinalarini minishni yoqtiradi.

- Siz ham ichkariga kirasisizmi? — so'radim men.
- Yo'q, — javob berdi u. — Men atrofni aylanib turaman. Sen qancha vaqtida bo'shaysan?
- 20 minutlarda, — javob berdim.

Men do'kon eshigini ochganimda qo'ng'iroqlar jiringlab ketdi. Shishali rastalar orasida o'tirgan odam qalin kitobdan boshini ko'tardi. U keling degandek bosh irg'adi-da, keyin yana kitobga sho'ng'idi. Uning tirsagi yonida yarmi yeyilgan sandvich turardi. Fahmladimki, u Sem amakining o'ziniki. Chiroq nuri xira edi. Hamma joyda oynali shkaflar. Polda



qutilar uyilib yotardi. Sem amakining do‘koniga boshqalarnikiga o‘xshamagan edi. U yerdan g‘alati hid kelardi. Do‘kon ivirsib yotgan texnik xizmat ko‘rsatish shoxobchasiga o‘xshardi.

- Bolakay, senga mening yordamim kerakmi?
- Men tanga sotib olmoqchiman, — javob berdim men. Sem amaki bir siltandi va burchakni ko‘rsatdi.
- Bu yerdan yuqoridagi qutilarning birida ko‘p tangalar bor. Sen bemalol qarab tanlashing mumkin. — Uning ko‘zлari yana kitobga qaytdi.

Men qimirlamadim. — Chindan ham menga yordam berib yuborsangiz judayam xursand bo‘lardim.

Sem amaki varaqning bir burchagini buklab qo‘di, sandwichdan katta tishlab olib kitobni yopdi. Og‘zini yengi bilan artib: — Men seni avval ko‘rgan-ko‘rmaganligimni eslay olmayapman, — dedi. — Bu bиринчи ташрифингми?

Men bosh irg‘adim.

— Yaxshi, sen bu yerga to‘g‘ri kehbsan. Qachondan beri numiznimatika bilan shug‘ullanasan?

— Nima u numi... — dedim men tushunmay.

Sem amaking yonoqlari qizardi. Uning tilla tishlari bor edi. — “Numiznimatika!” — dedi u, — tangalarni yig‘uvchi degani.

— Men numi, numiznik, tanga yig‘uvchi emasman. Men detektivman. Ismim Jigso Jons. Men muammolarning yechimi ustida ishlayman.

Sem amaki menga qo‘lini uzatdi. — Seni ko‘rganimdan xursandman. Senga qanday yordam bera olaman?

Men unga hozir qidirayotgan 1937D raqamli tanga haqida gapirib berdim. — U juda noyob! — qo‘shib qo‘ydim men.

— Noyob? — dedi Sem amaki. — Men bunday deb o‘ylamayman. Men ishonamanki, uni istagan joyingdan sotib olishing mumkin. Men kichkina kitobimni qidiraman. U tangalarning qonun kitobi. Ke, tekshirib ko‘ramiz. Sen narx-navoni bilishni xohlaysanmi?

— Yaxshi yigit! — dedi Sem amaki. — Bu yerda tangalarning har xil turlari bor. Ko‘plab kolleksiya yig‘uvchilar ishni aynan tangalarni nomlashni o‘rganishdan boshlashadi. — Sem amaki xotirjam o‘tirib numiznimatiklar

haqida gapirib ketdi. Gapining orasida: – Tushunyapsanmi? – deb so‘radi.

– Ozgina, – dedim men.

Sem amaki barmoqlarini kitobda yogurtirdi: – Hozir sen sotib olmoqchi bo‘lgan tanga hamma yerda 75 sent va 2



dollar orasida bo‘lishi kerak, ammo qarab ko‘ramiz.

– Nahotki! – o‘yladim men. Bir tanga uchun 2 dollar! Men to‘satdan Lusining yo‘qolgan tangasi haqidagi ma’lumotlarni esladim. Keyin detektiv jurnalimni tekshirdim. Mana topdim, men izlayotgan tanganing

orqasida uch oyoqli ho‘kizning rasmi bor.

— Mana, hozir qidiraman, — dedi Sem amaki. — 1937D,
— u ovozini maxsus pastlatdi. — Kel, senga ko‘rsataman. —
U kalitlar shodasini ola turib yana rasmga ko‘z yogurtirdi...
Keyin shishali chamadonni ochib menga tangani uzatdi. —
Buni ko‘rgin, — dedi u. — Uch oyoqli!

Endi ishondim, tanganing orqasidagi ho‘kiz uch oyoqli
edi. — Ammo nima uchun uch oyoqli qilib yasashgan? —
so‘radim men.

— Bu xato yoki anglashilmovchilik, — dedi Sem amaki. —
Ba’zida shunday bo‘lib turadi. Tangalarni yasashda ba’zi
xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

U kitobni yana tekshirdi. — Uch oyoqli ho‘kiz. — 1937 D
raqamli, chindan ham 2 — 5 dollar atrofida sotish mumkin,
— deb yozilgandi. Qavs ichida: “SHAROITGA BOG‘LIQ
HOLDA”, degan yozuv bor.


Men yutinib oldim. Eshik qo‘ng‘iroqchalari yana
jiringladi. “Salom, Erni!” — Sem amaki baland ovoz bilan
yangi xaridorni chaqirdi.

Men esa tashqaridan baland ovozda berilgan signalni

eshitdim. Bu mening akam Billu edi.

— Men borishim kerak. Hamma savollarimga javob
berganingiz uchun rahmat!

— Yana bir kun kel, detektiv! — dedi Sem amaki. Meni
tashqariga kuzatar ekan, u menga ko‘zini qisib qo‘ydi.
Kulganida og‘zidagi tilla tishi yaltirab ketdi.



6- QISM

SO'ZLAR VA GAPLAR


— 2 dollardan 5 dollargacha! — Mila xitob qildi. — Bir tanga uchun-a!

Biz endi idoramda bajaradigan vazifalarimizni rejalashtirib oldik. Ammo biz muammoning yechimiga yetib bora olmayotgandik. Chindan ham Jigso jumboqlari.

— Men haliyam Lusining otasi shunday qimmat tangani qiziga ishonib bergenligini hazm qilolmayapman, — dedim men.

Mila boshini qimirlatdi. — U hali buni bilmaydi. Lusi uni Bigga hech kimdan so'roqsiz berib yuborgan.

Men qalamimni o'ynab xavotirlanib turgan Lusining rasmini chizdim. Yaxshi chiqdi, ammo baribir odamlarni tasvirlash qiyin-da!



Jigso Jons -
Izquvar



Onam pastga ovqat olib tushdi. Qovurib pishirilgan ajoyib ovqatlar.

— U haliyam issiq, — dedi onam. — Vazifalaring cho‘zilib ketdimi?

— Ajoyib, oyijon! — dedim men. — Ta’mi og‘zingda qoladi-ya!

Mila hech narsa demadi. Menimcha, u bizning harakatimizni kuzatardi.

— Yaxshi, ikkovingizning ishingiz ham ko‘pga o‘xshaydi, yechilmagan muammolarингiz bor shekilli? Unda sizlarni yolg‘iz qoldiraman. Ishga sho‘ng‘ing!

U bizni yolg‘iz qoldirdi. Zinalardan ko‘tarilayotgan qadam tovushlari eshitilardi.

Shanba kuni kechqurun biz gapdagи barcha so‘zlarni bitta-bitta talaffuz qilish mashqini bajardik.

Mana o'sha so'zlar:

SUPURMOQ

TUFLI

BERKITMOQ

TOPMOQ

TUGATMOQ

KATTA

XONA

SAQLAMOQ

NARSA

TISH

Biz endi o'zimiz xohlagan oraliq bonus so'zlarni tanladik. Qorbobo, sovg'alar, shamdonlar. Keyin shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzdik.



Men gapimni sekin yozdim. Glison xonim aytganidek,

yozganimizda har bir tinish belgisiga ham ehtiyot bo‘lishimiz kerak.

Mila mening ishimni kuzatib o‘tirardi. Uning aytishicha, men ba’zi bir xatolarga yo‘l qo‘ygan ekanman.

— Bizning taxminimiz kim? — yana mavzuimizga qaytdi Mila.

Men hatto jurnalimga ham qaramadim. — Faqat bitta! — dedim. — BIG MELONI.

- Boshqa kalit-chi? — so‘radi u.
- Hech kim, — javob berdim.

Mila va men baxtsiz, xomush o‘tirardik. U orqasiga suyanib, ingichka ovozda qo‘shiq kuylay boshladi:

Siz ko‘rmadingizmi mening yo‘qolgan narsamni,
Uch oyoqli ho‘kiz rasmli tangamni,
Oxirgi safar Bigga bergandim uni,
O‘playverib quritdi-ku tinkamni!

Bu yaxshi qo‘shiq bo‘lmasa ham, men unga qo‘shilishdim. Oxiri men o‘rnimdan turdim.

- Biz bajarishimiz mumkin bo‘lgan faqat bitta narsa qoldi. Biz Big Melonining xonasini qidirishimiz kerak. U tangani o‘scha yerda yashirin saqlayotgan bo‘lishi mumkin.
- Bilmayman, Jigso, — dedi Mila. — Buni qanday qilib bajaramiz?
- Biror narsa o‘ylab topishimiz kerak, — javob berdim. Mila qovog‘ini soldi va: — Bu meni xavotirga solyapti, — dedi.



7- QISM

MAXFIY VAZIFA

Mila va men Bigning uyiga chorshanba kuni mактабдан keyin bordik. Eshik tashqarisida turganimizda Mila chuqur nafas oldi. Ikkimiz ham jiddiy qiyofada edik.

- Rejamizni esingdan chiqarma, — dedim.
Men eshik qo‘ng‘irog‘ini bosdim.
Eshikni Bigning o‘zi ochdi.
- Salom, Big! — dedik biz baravariga.
U bizni ko‘rganidan ajablandi. Tik turgan holda bizga qattiq tikildi.
- Bir daqiqaga uyga kirishimiz mumkinmi?
- Oyi, — chaqirdi Big. — O‘rtoqlarim kelishgan ekan.

Ichkariga kirishsa maylimi?

Meloni xonim javob qaytardi: – Do'stlaring bo'lsa yaxshi, Charli, ammo oyoqlari bilan gilamni ho'l qilishmasin!

– Oyim egizaklar bilan band, – dedi Big. – U har doim ular bilan band bo'ladi, – tushuntirdi u.

Biz oyoq kiyimizni yechib bir chetga qo'ydik. Mening boshmaldog'im biroz sovqotgandi. Paypog'imning uchida ozginagina yirtiq bor edi.

– Sening xonangga kirsak bo'ladimi?

– Uff! Taxmin qilganimdek, – deb Big bizni kichkina yotoqxonaga boshladi. Devorlarga dinozavr tasviri tushirilgan plakatlar yopishtirilgan edi. Polda o'yinchoq dinozavrlar uyulib yotardi. O'yinchoq quti esa turli chiqindilar bilan to'la, qopqoqlari yopilmagan.

Big karavotiga o'tirdi.

– Shundaymi? – dedi u aybdorlik kursisida o'tirgandek.

– Big, o'sha kungi gaplarim uchun meni kechirishingni istardim, – dedim. Qo'llarimni belimning orqasiga qo'yib, birpas jim qoldim. – Meni chindanam kechir, sen o'sha



kuni birorta ham yolg'on gapirmading, seni yolg'onchi deb o'ylamasligim kerak edi. Men xato qilganman.

— Bigning qovog'i hali ham solingan edi.

— So'rash bizning vazifamiz edi.

— Men ahmoq emasman,— dedi Big. — Sizlar meni o'g'ri deb o'ylaysizlar. Ammo unaqa emas.

Biz bir-birimizga tikildik. Biroz fursat o'tdi. Bir sekund o'tar-o'tmay Mila:

— Big, menga egizak ukalaringni ko'rsatmaysanmi? Ularni ko'rsam bo'ladimi? — dedi.

Bigning yuzi yorishdi.

— Ular hozir ovqatlanishayotgan bo'lsa kerak. Hattoki ularning narsalarini yerga otishlarini kuzatish ham maroqli.

Big eshikka burildi-da: — Jigso, sen ham ularni ko'rishni xohlaysanmi? — dedi.

— Shu yerda kutsam bo'ladimi? — so'radim men. — Sening dinozavrлaringga judayam qiziqib qoldim.

Big yelka qisdi. — Mayli, xohishing, — deb Mila bilan tashqariga yo'naldi.

Men yolg'iz qoldim.



Birinchi bo‘lib men paypoq g‘aladonini ochdim. Bu yer bolalar ning ko‘pgina narsalarini saqlaydigan eng ishonchli joylaridan biri. Hech narsa yo‘q. Keyin to‘sakning tagini ag‘dardim. Bu yerdan faqat birgina kichkina o‘yinchoq chiqdi. Yana qandaydir bodroqlarning salafani ham bor edi. Keyin shkafni tekshirdim. Yangi kurtkaning cho‘ntaklarini qidirdim. Ular turli yumshoq o‘yinchoqlar bilan to‘la edi (menimcha, ular to‘polonchi egizaklarniki bo‘lsa kerak), ammo tanga yo‘q.

Sezdimki, Big haliyam eski kurtkasini kiyadi. Kurtkasi yashilligidan kir bo‘lib ketgani shundoqqina ko‘rinadi. Shuning uchun ham Bigga yangisini olib berishgan bo‘lishsa kerak. Men uning o‘ng cho‘ntagini tekshirdim. Hech narsa yo‘q. Keyin chap cho‘ntagiga qo‘l tiqib, yuzlarim burushib ketdi. Bu yerda kattagina teshik bor edi. Tanga sirpanib tushib ketishi uchun yetarli kattalikdagи teshik. Topolmaganim o‘zimga judayam alam qildi.

Eshik tashqarisidan Milaning ovozi eshitildi. U judayam baland gapirardi. Bu kelishilgan ogohlantirish edi.

– **ULAR JUDAYAM SHO‘X!** – dedi u.



Men darhol egilib bir dinozavrni ushlab oldim. Big ham xonaga kirdi. Mila menga sekin nazar tashladi, men Milaga. Bu bizning maxfiy ishoramiz edi. Big hech narsadan shubhalanmadi.



8- QISM

JUDA YOMON

Mila menga kechqurun telefon qildi.

— Sen haq ekansan, — dedi u. — Lusining aytishicha, tangani Bigga bergani kuni u aynan shu kiyimda ekan. Lusi hatto Big tangani cho‘ntagiga solib qo‘yganini ham esladi.

Men unga rahmat aytib aloqani uzdim.

Men haq bo‘lishim mumkin. Ammo ich-ichimdan adashgan bo‘lishimni xohlayman. Axir Big Meloni haqida ham o‘ylab xato qilgan edim-ku! Bu fikrim ham shu kabi xato bo‘lsa edi. Tanga uning cho‘ntagidan tushib qolgan bo‘lishi mumkin.

Men seshanba kuni ham yomon kayfiyatda uyg‘ondim. Hattoki avtobusda ham o‘sha kayfiyatim tarqalmagandi. Mila



bilan gapplashmadim ham. U meni yoniga chaqirdi, keyin Gita Neyr bilan o'tirdi. Uning xabar berishicha, Yelena Jakernen maxsus shamdon sotib olibdi. U "menorah" deb atalar ekan. U bizga Hanukkahning 8-kuni haqida gapirib berdi. Uning onasi butun sinf uchun latkeslar tayyorlabdi. Menga biroz ta'mi yoqmadi. Undan quymoqqa o'xshagan ta'm kelar, tuzilishi ham kichkina quymoqqa o'xshardi. Yelenaning aytishicha, unga olmali murabbo qo'shilgan ekan.

Darsda Glison xonim ikki marta menga o'girilib qaradi.

— Sen bugun o'zingni jentlmenlarga o'xshab tutmayapsan,— dedi u. Hatto hikoyani yarmida to'xtatdi.
— Iltimos, qurtga o'xshab atrofga tirmashishni to'xtat, menga sening boshingni ko'rsatmay o'tirishing yoqmadi, — dedi.

Men inqilladim va to'g'ri o'tirib oldim. — Men seni tibbiyot hamshirasiga jo'natishga majbur bo'lib qolishdan qo'rqaman. Qarang, hozir boshini ko'tarib o'tiradi, — deb piching qildi.

Hamma kului, hatto Mila ham. Men xafa bo'lib ketdim. Tushlikdan keyin biz o'zimiz yasagan qorboboni uyimizga

olib ketamiz. Mening yuzim yana yorisha boshladи. O'ylab zerikkandan ko'ra boshqa narsaga chalg'ish yaxshiroq-da! Hadeb o'ylashdan charchadim, nimadandir umid qilishim kerak.

Qor odamni belgilab olgan o'lchamlарим asosida yasashni boshladim. Uch juft oq qog'ozni sirkul yordamida aylantirib chizib oldim. Birinchi juftning yuzasi 2 sm edi. Yana bir jufti 3 sm li. Oxirgisi 4 sm lik o'lchamda edi. Qorboboning yuzini eng kichkina aylanadan qildim. Men uch tugmani aylana o'rtasiga tikdim.



Aylanalarni uzun ip bilan yopishtirdim. Bunda yashil rangdan foydalandim. Chunki bu bayram rangi edi. Glisonning aytishicha, biz judayam ehtiyyot bo'lishimiz kerak ekan. Ayniqsa, doiralarning yuzasini tanlab olishda xushyorlik talab etiladi. Keyin doiralarni aynan bir-biriga moslab to'g'rilashimiz kerak. Glison allaqachon biz uchun turli xil qalpoqlar to'plamini tayyorlab qo'ygan. Bu yerda basketbol shapkasi, gulli shlyapa va shapkaning bir necha turlari bor. Men basketbol shapkasini tanladim va qorboboning boshiga yelimladim.

Ajoyib! Bu oyimga juda yoqsa kerak. Shunda miyamda chaqmoq chaqnagandek bo'ldi. Qoyil! Bu ajoyib g'oya!

Qarang, Lusi Hiller Bigga tangani berganda, u Qorbobo yasayotgan edi. Ehtimol, shunda cho'ntagidan tushib qolgandir. Keyin men yana esladim. Mila bilan Bigga gapirganimizda men uning o'ta ehtiyyotsizligini sezgan edim. Big yaxshilab qaramasdan ham qo'lini qorga to'ldirardi va uni yumaloqlardi. U tasodifan tangani changallagan bo'lishi ham mumkin.

Bu mening o'ylarim, taxminim edi! Tanga Big yasagan qorboboning ichida bo'lishi kerak!



9- QISM

QORBOBONING O'LIMI

Big Meloni fikrimni eshitishni ham istamadi.

— Yo‘q, yo‘q! — dedi u. — Men bunday qilolmayman.

Axir bu mening bayramga tayyorlagan syuprizim-ku!

— Lusi haqida biroz o‘ylagin! Sen unga tangani topib bersang, uning qanchalik xursand bo‘lishini bir tasavvur qilib ko‘r!

Big biroz o‘ylandi.

— Sen hatto qahramon bo‘lishing ham mumkin, — dedim men.

— Qahramon?! — so‘radi u.

— Geraklga o‘xshab, — dedim.

Big o‘ylanib qoldi. U qorboboga uzoq vaqt tikilib turdi.

— Yaxshi, — rozi bo‘ldi. — Men shunday qilaman.

Darsdan so'ng biz qorboboning oldida uchrashdik. Uni oz-ozdan bo'laklarga bo'ldik. Ichidan toshlar topdik, qorni ehtiyotkorlik, xushyorlik bilan tekshirardik. Qorboboning bosh qismiga kelgandik. Oxirida qorboboning chap yelkasini tekshirdik. Yana toshlar va kichkina tayoqcha ham chiqdi. Ammo tanga ko'rmasdi. Mening brilliant g'oyam ish bermadi!



Biz charchadik. Hammamiz xafa edik. Qorong'i tushayotgandi. Mila mehribonlik bilan qo'lini Bigning yelkasiga qo'ydi.

— Tur, Big, sen judayam charchading.

Big Milaga qaradi. Mila menga. Keyin Big boshini egib uf tortdi va sekin uyga yo'l oldi.

U hatto xayr ham demadi.

Men kechqurun karavotda yotib o'ylayverdim, o'ylayverdim, o'ylayverdim. O'rnimdan turib chiroqni yoqdim.



Keyin detektiv jurnalimni ochdim. Ichida, sahifalar orasida 5 dollar turardi. Men uni stolim ustiga qo'ydim. Agar bu muammoni tezda hal qilib bera olmasam, pulni Lusiga qaytarib bermoqchiman. Ammo mening 2-sinfdag'i

eng yaxshi detektiv unvonimga putur yetadi-da. Odatda hamma sirning o‘z yechimi bo‘ladi. Men bu safar yechimning to‘g‘ri kalitlarini topolmay sarson bo‘layotgandim. Men nima qilib bo‘lsayam muammoning kalitlarini topishim, to‘g‘ri yechimga borishim judayam zarur edi.

Onamning aytishicha, biron narsa haqida berilib o‘ylayversang faqat bema’ni, yomon xayollar kelaverar ekan.



10-QISM

OXIRGI UMID

Chorshanba kuni ertalab avtobusda men eski vazifa daftaramning varag‘ini Milaga uzatdim.

- Qara, — dedim men. — Bu yerda yo‘qolgan kalit bor. Mila boshini qimirlatdi.
- Men uni ololmayman, Jigso, bu sening uy vazifang.
- Bu yerdagi supurmoq so‘zi ajratib ko‘rsatilgan. Uni qanday yozganimni ko‘rgin:

Men supurishni yoqtiraman.

Milaning yuzida tushunmaganlik ifodasi bor edi.

- Ya’ni?
- Hozir sen men yozgan quyidagi gapdagi topmoq so‘ziga e’tibor ber:

Men kalitlarni topishni yoqtiraman.

Mila o'rindiq suyanchig'idan ancha oldinga siljidi. Uning miyasi mashina kabi ishslashga tushdi.

— Kechirasani, Jigso. Men haliyam tushunolmayaman.— Sen ular orasidagi aloqani nahotki sezmagan bo'lsang? Bir kuni men janob Kopabiankoning yoniga matematika jumboqlariga yordam berishini so'rab chiqqan edim. U o'shanda menga turli narsalarni topib olishini aytgan edi.

Mila bosh irg'adi. Men so'zimda davom etdim.

— Keyin men so'zlarni dona-dona qiib talaffuz etishni o'rgatgan uy vazifamiz esga tushdi. Esingdami, o'shanda so'zlarimiz orasida supurmoq, topmoq so'zları bor edi.

Milaning yuzi yorishib ketdi. — Demak, sening nazaringda...

— Ha, men aynan shuni o'ylayapman. Big uni mактаб ichidayoq tushirib qo'ygan bo'lishi mumkin.

— Chindan ham, — qo'shib qo'ydi Mila. "Kopabianko uni polni supurayotganda topib olgan bo'lishi mumkin".

Biz 201-xonaga yugurdik. Glison xonim ostonada turgan

edi. Biz katta tezlikda uni turtib ketdik. Shunda u orqamizdan:

— Nega bunchalik shoshilasiz, nima bo‘ldi, sekinroq yuring, — deb qichqirdi.



— Kechirasiz,xonim! Biz tezroq Kopabianko bilan gaplashishimiz kerak. Bu haqiqiy favqulodda holat!

— Favqulodda holat! Nima sodir bo‘ldi? Yana o‘g‘il bolalarning yuvinish xonasida suv toshib ketdimi? — so‘ray ketdi Glison xonim.

— Bundan ham yomonroq, — pichirladim men. — Ammo biz buni bu yerda aytolmaymiz. Bu detektivlik bilan

bog'liq.

Glison xonim o'rnidan turdi va chiroqni yoqib, o'chirdi va: — O'quvchilar men hozir beshgacha sanamoqchiman va bu vaqtning ichida hammangiz o'tirib olishingizni istayman, — dedi. — Bir, ikki, uch, to'rt, besh. — Hamma o'tirdi. Glison xonim kului. — Ajoyib kasb. Shovqin qilmang, iltimos. Men tashqaridagi tovushni ham eshitay.

Zalda Glison xonim bizni yoniga chaqirdi: — Menga u haqida gapirib bering!

Shunday qilib biz unga Lusi va Big haqida, yo'qolgan tanga haqida gapirib berdik. Uning cho'ntagidagi teshik haqida, buzib tashlangan ulkan qorbobo haqida ham aytdik.

— Kopabianko bizning oxirgi umidimiz, xonim.

Glison xonim chuqur nafas oldi. Bu yaxshi alomat edi. U har doim yaxshi gap aytishdan oldin chuqur nafas oladi. Biz endi yo'lga otlanmoqchi bo'lganimizda: — Ko'p qolib ketmang, sinf yig'ilishini sizlarsiz boshlay olmaymiz, — dedi.

Mila ikkalamiz zal bo'ylab yugurib ketdik. Biz oxirgi ilinj — Kopabiankoning xonasini taqillatdik.

— Marhamat, kiring! — ichkaridan ovoz keldi.

— Janob, siz xonalardan tanga topib olmadingizmi?

U shishali ko‘zachani stol ustiga qo‘ydi: — Men har kuni juda ko‘p narsalarni topib olaman va shu ko‘zachaga solib qo‘yaman. Kechki payt uni bo‘shataman.

U katta qutini ko‘rsatdi: — Sharf, turli o‘yinchoqlar, tennis to‘pchalari... Ularning hammasini shu yerda saqlayman.

Biz xohlamaygina eshitardik. Xayolimiz ham, nazarimiz ham birgina shishali ko‘zachada edi.

Kopabianko shunday dedi: — Men ularni yig‘ib boraman. Keyin Yangi yilda bolalarga ulardan sovg‘a qilaman, chunki hammasiga sovg‘a qilishga qurbim yetmaydi.

U boshi bilan yana ko‘zachaga imladi. — Yaxshi bolalar, sizning yo‘qolgan tangangiz qanaqa edi?

Biz tanga haqidagi bor ma’lumotlarni aytib berdik.

U ko‘zachadagi narsalarni stol ustiga to‘kdi.



11-QISM

AJOYIB

Mila tangani birinchi bo‘lib topdi, chunki uning nigohlari hammanikidan ham o‘tkir edi. Kopabianko tangani parta ustidagi lampada tekshirib ko‘rdi va:

— Albata, shu sizlarniki bo‘lsa kerak, — dedi. U tangani menga uzatdi. Men uni cho‘ntagimga solib qo‘ydim. Cho‘ntagimdan 5 dollarni olib ko‘zachaning ichiga soldim.

Kopabianko sezmay ham qoldi. — Bu bolalarga sovg‘a uchun, — dedim ichimda. Mila ham niyatimga darhol tushundi. — Yangi yil uchun! Bolalarga sovg‘a oladi.

Men ich-ichimdan o‘zimni yaxshi his qilar edim.

Biz 201-xonaga qaytib kelganimizda iqtidorlar namoyishi boshlangan ekan. Jo taykvando namoyishini o‘tkazayotgan edi. U sportchilarning maxsus kiyimini kiyib



olgandi. Hamma uning harakatlarini maroq bilan tomosha qilardi.

Namoyishlardan so‘ng Glison xonim bizdan:

— Qalay? — deb so‘radi.

Men qo‘limni burnim ustiga qo‘ydim. Bu bizning maxfiy signalimiz edi. Ammo Glison buni tushunmadı.

— Endi men navbat olsam bo‘ladimi? — so‘radim men.

Men xonaga kirdim va: — Bolalar, mening ismim Ajoyib Jons. Lusi Hiller, siz mening yonimga kela olasizmi? — deb so‘radim.

MUNDARIJA

1-qism. Yo‘qolgan tanga	3
2-qism. Milaga sms	9
3-qism. Yangi yil qorbobosi	12
4-qism. Ziyofat rejasi	18
5-qism. Sem amakining tanga do‘koni	26
6-qism. So‘zlar va gaplar	33
7-qism. Maxfiy vazifa	39
8-qism. Juda yomon	46
9-qism. Qorboboning o‘limi	51
10-qism. Oxirgi umid	55
11-qism. Ajoyib	60

Muharrir Ma’suda Yo‘ldosheva

Musahhih Feruza Hamidova

Rassom Shuhrat Odilov

Texnik muharrir Dilmurod Jalilov

Original maketdan bosishga ruxsat etildi 13.08.2010. Bichimi
70x84 $\frac{1}{16}$. Ofset bosma. Tayms garniturası. 4,0 bosma toboq.
5-raqamli buyurtma. Adadi 1000 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.

«EXTREMUM PRESS» nashriyoti,
Toshkent sh., J.Obidov ko‘chasi, 160-uy.

MCHJ «SHIDASP» matbaa korxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Sobir Rahimov ko‘chasi, 70 b-uy.
Tel: 111-04-89.

James Preller



**YO'QOLGAN TANGA
SARGUZAŞHTLARI**

«EXTREMUM PRESS»

ISBN 978-9943-369-63-4

A standard linear barcode representing the ISBN 9789943369634.

9 789943 369634